

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIM
SAMARADORLIGINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI
(DIDAKTIK O'YINLAR)**

Toshboyeva Nafisaxon Mirzamahmudovna

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 28- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikmalarini oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati, dolzarbligi va o'quvchilarni didaktik o'yinlarga qiziqishlarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi bilimlarini sifatli va samaradorligini oshirish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida foydalanishi lozim bo'lgan o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, usul, qiziqish, diqqat, sifatli ta'lim, tarbiya, e'tibor, qobiliyat, boshlang'ich sinf, didaktik metod, samara.

KIRISH

“Beshikdan to qabrgacha bilim ol”, -deb bejiz aytmaydi xalqimiz donishmandlari. Inson shaxsi kamolatga, komillika inirilishida ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos. Ma'lumki barcha jabhalarda yangi texnologiyalar joriy qilinishi kuzatilayotgan ayni vaqtda innovatsion va ijodkorlik qobiliyatiga ega, hayotiy muammolarni har qanday yechimini topishga qodir bo'lgan shaxslarga ehtiyoj oshmoqda. Bu nuqtai nazardan jadallik bilan o'zgarayotgan ijtimoiy hayot va har bir insondan yangi va ko'pincha noaniq, nostandart vaziyatlarda harakatlanishni ta'minlovchi ijodiy qobiliyatlarni yuqori darajada shakllantirish hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishni taqazo qilmoqda. Biroq ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Chunki nafaqat olingan bilim va shakllangan ko'nikmalar, balki maxsus ijodiy fikrlash har bir shaxs ijtimoiy muvaffaqiyatning, ya'ni kelajagimiz ishonchi bo'lgan yoshlar farovonligi kalitidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Yoshlarga jamiyatning munosabati to'g'risida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan quydagi fikrlar bildirilgan: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz". Darhaqiqat hozirgi kunda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarning yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuqlari puxta o'zlashtirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani, jahon standartlariga javob beradigan o'quv xonalari, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda didaktik o'yinlarning ahamiyati yosh psixologiyasida juda muhim o'rin tutadi. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasalaridan tog'ri maktabga kelishganda ularning bog'chadan maktabga moslashishi biroz qiyinlik tug'diradi. Ular maktabning tartib qoidalariga bo'sunishi mashaqqat bilan kechadi. Shu boisdan didaktik o'yinlar nafaqat ta'lim tizimining sifatiga samara beribgina qolmay, bolalarni diqqatli, e'tiborli, qiziquvchanligini oshirishda anchagina yordam beradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bola shaxsi energiyali bo'lib bu energiyani har qanday usul bilan tashqariga chiqarishni xohlaydi, bu energiyani tog'ri yo'naltirish pedagog kadrlarimizning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Masalan, 2-sinf bolalari uchun "Delfin to'siqdan o'tdi" o'yini bolalarga olam-olam zavq bag'ishlabgina qolmay ularning diqqatli bo'lishga o'rgatadi. Bolalar didaktik o'yinlardan nafaqat dam olishi va shu qatorda bilim, ko'nikma olishi zarur. Va yana didktik o'yinlarga misol keltirsak: "Eshitganingga emas, ko'rganingni bajar", "jimjitlik", "b,p,d,q" didaktik o'yinlari o'quvchilarning diqqatli, e'tiborli bo'lishgayordam beradi va zehni boyitadi. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy - jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim tarbiya jarayonida asosan talabalarda umumiy ta'lim olish motivlarini ularning turli

yoʻnalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan boshlangʻich oʻqituvchi kasbga moyilliklarini koʻrsatadigan didaktik oʻyinlardan foydalaniladi. Didaktik oʻyinlar nazariy, amaliy, rolli, ishchanlik va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik oʻyinlardan foydalaniladi va alohida oʻringa ega boʻlib bormoqda. Umumiy oʻyinlar nazariyasiga koʻra mavjud barcha oʻyin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy oʻyinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik oʻyinlar musiqiy taʼlim - tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida oʻringa ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oʻqituvchi - pedagog didaktik oʻyinli mashgʻulotlarni oʻtkazishda qizgʻin tayyorgarlik koʻrishi va uni oʻtkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik oʻyinli mashgʻulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan boʻlishi;
2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bagʻishlanib, ular oʻyin davomida hal qilishi;
3. Barkamol shaxsni musiqiy tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq normalariga mos kelishi;
4. Oʻyin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda boʻlishi;
5. Mashgʻulotlar davomida musiqiy didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Didaktik oʻyin - taʼlim beruvchi usul boʻlib, bu usul muayyan taʼlimiy maqsadlarga erishishga yani oʻtilgan oʻquv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan boʻladi. Har bir didaktik oʻyinni oʻtkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Har bir didaktik oʻyinning ham, har qanday oʻyindagi singari qoidalari boʻladi. Oʻsha qoidalarga amal qilinmasa oʻyinning oʻyin sifatidagi ahamiyatli binobarin oʻyinning taʼlim tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yoʻqoladi. Oʻyin qoidalari oʻyin topshirigʻiga kiritiladi.

Oʻyin topshirigʻi -musiqa oʻqituvchining bolalarga oʻyinning qanday oʻynalishini, kim gʻolibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik oʻyin oʻz navbatida quyidagi

komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni natijasi. Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga hos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

Didaktik o'yinlarni amalda qo'llash shart-sharoitlari: Didaktik o'yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o'yin mashg'ulotlariga o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik o'yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi. Didaktik o'yin turlarini tanlash me'zonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha o'g'il-bolalar, qiz-bolalar, qiz bolalar, o'smirlar katta yoshdagilar uchun o'yinlar;

- ishtirokchilar soni bo'yicha yakka, juftlikda kichik guruh, sinf jamoasi, raqobotdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o'yinlar;

o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash topog'onlik, harakatlar musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan yo'llar;

- vaqt me'yori bo'yicha dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar. Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga hos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin. - konselyariya tovarlari - turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skoch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg'ichlar, qaychi, yelim va boshqalar. - texnika vositalari - proektor, mikrofon, kompyuter, video kamera, video magnitafon, televizor va boshqalar. - mahalliy - tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar. Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni taminlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish musiqa darslar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlar: - ishtirokchilar tarkibi bo'yicha o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, kata yoshdagilar uchun o'yinlar; - ishtirokchilar soni bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o'yinlar; - o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar, musoboqa va boshqalarga yo'naltirilgan o'yinlar; - vaqt meyori bo'yicha - dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlari: Shunday qilib, yuqoridagilardan quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkinki, boshlang'ich ta'limi tizimida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning muloqot qilish ko'nikma va malakalarini, o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.D.Suleymonova. Pedagogik mahorat. Guliston-2022
2. Y.Nurumbekova. Umumiy pedagogika. Guliston-2022
3. J.Komilov. Umumiy pedagogika. Guliston-2022
4. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
5. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
6. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma. T., Sharq, 2006y.
7. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 471. – C. 06015.
8. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – T. 1. – №. 14. – C. 10-14.
9. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIGATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – T. 18. – №. 1. – C. 110-115.
10. Xalilbek o'g'li X. E. MOTOR MOYLARIDA BO'LADIGAN O'ZGARISHLAR VA ULARNING XIZMAT QILISH DAVRI //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 321-323.
11. Xalilbek o'g'li X. E., Bobirxon o'g'li U. B., Xalimjonov E. X. LOGISTIK KORXONALAR FAOLIYATINI O'RGANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 8. – №. 4. – C. 89-92.
12. Xalilbek o'g'li X. E., G'anijon o'g'li V. J., Xalimjonov E. X. CHORRAHALARDA TRANSPORT VOSITALARINING TIRBANDLIGINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 8. – №. 4. – C. 99-104.
13. Xalimjonov E. Motor moylari, xossalari va ularda bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash //Актуальные вопросы высшего образования–2023. – 2023.